


83. Yuzlarni paletka yordamida hisoblash

Yondosh mavzu:
rangtasvir.


Yuz, aylana, doira.




1. Paletkadagi kvadratning o'lchami 1 sm^2 ga teng. Rasmning yuzini aniqlang.



2. Rassomlar devor yoki matoga rasm chizishdan oldin, ular uning xomaki nusxasini qog'ozga chizib oladilar. Rassom o'z xomaki nusxasini qiyshiq to'rtli qog'ozga chizgan. Ushbu rasmni daftaringizga kataklar bo'yicha ko'chirib chizing. Hosil bo'lgan chizmaning yuzini topa olasizmi?



3. $ABCD$ to'g'ri to'rtburchakning tomonlarini o'lchang. Daftaringizga xuddi shunday to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning yuzini hisoblang.



Ushbu to'g'ri to'rtburchakda shunday kesma o'tkazingki, chizmada yuzi 4 cm^2 , 24 cm^2 va 20 cm^2 ga teng bo'lgan uchta to'g'ri to'rtburchak hosil bo'lsin.

83. Yuzlarni paletka yordamida hisoblash



4. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 820 cm^2 , bo'yi esa 41 cm ga teng. Uning eni va perimetrini toping.



5. Taqqoslang.

750 75

809 890

502 522

7 m 26 cm 72 dm 5 cm

3 dm 4 cm 5 mm 354 cm

3 m² 5 dm² 35 dm²



10 kg 1 q

4 q 5 kg 45 kg




700 dm³ 70 l



6. Tomning yuzini o'lchash uchun Madina o'lchov sifatida doiralarni, Aziza esa uchburchaklarni tanladi. Qizlarning qaysi biri o'z o'lchovlarida yuzni aniqroq o'lchagan? Ularning tomi necha birlik yuzni tashkil qiladi?




7. Jadval bo'yicha uchta tenglama tuzing. Ulardan birini yeching.

			
	Naturmort	Peyzaj	Portret
Bor edi	$x - 118$	719	162
Sotildi	215	$y + 112$	$501 - z$
Qoldi	256	234	123

83. Yuzlarni paletka yordamida hisoblash




8. Rassom ikkita davlat xaritasini bir xil masshtabda chizdi. Paletkadan foydalanib, qaysi davlat maydonining yuzi katta ekanini aniqlang. Rasmda qaysi davlatlar tasvirlangan?



9. Rassom "Qora kvadrat" rasmini chizdi. Keyin u bu kvadratda shunday chiziqlar o'tkazdiki, bunda har bir chiziq bu kvadratni ikkita teng qismga bo'ladi. U nechta shunday chiziq chizishi mumkin? Bunday holatlarning barchasini daftaringizga chizing.



10. Ustaning yashil, sariq, qizil va ko'k rangli plitkalar bor. U turli rangdagi 4 ta teng shaklga ega mozaikani hosil qilishni xohlaydi. Siz ustaning ishini tugallay olasizmi?



11. Qulay usulda hisoblang.

$$76 \text{ dm}^2 \ 14 \text{ cm}^2 + 2 \text{ dm}^2 \ 29 \text{ cm}^2 + 3 \text{ dm}^2 \ 86 \text{ cm}^2$$

$$57 \text{ cm}^2 \ 32 \text{ mm}^2 + 53 \text{ cm}^2 \ 96 \text{ mm}^2 + 47 \text{ cm}^2 \ 4 \text{ mm}^2$$



12. Daftaringizga bulut rasmini chizing. Uning yuzini hisoblash uchun paletka sifatida katak qog'ozdan foydalaning. Bulutning yuzi kataklarda nimaga teng?